

Boltayev Bobir Baxtiyorovich

Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası
katta o'qituvchisi, tarix
fanlari falsafa doktori (PhD)

ZAMONAVIY MUZEYLAR TASHKIL ETISHDA BUXORO TAJRIBASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida yurtimizda muzeyshunoslik tadqiqotlari borasida erishilgan ko'pgina yutuqlar ortida amalga oshirgan sa'y-harakatlarning ahamiyati keng yoritilgan. Ayniqsa, muzeylarda saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga ko'rgazmalar orqali namoyish etish hamda turizm sohasini yanada rivojlantirish konsepsiyasi bo'yicha bir qator hukumat qarorlarining tahlili yoritilgan. Bundan tashqari, respublikamiz muzeyshunoslarining muassasa va tashkilotlar muzeylari taraqqiyotidagi to'siqlar va ularni echimi xususidagi fikr va mulohazalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Jurnal, ekspozitsiya, arxitektura, restavratsiya, ekspluatatsiya, muzey, muzeyshunoslik, kolleksiya, eksponat, investitsiya, konsepsiya, kompleks.

БУХАРСКИЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ СОВРЕМЕННЫХ МУЗЕЕВ

Аннотация. В данной статье широко освещено значение усилий, предпринятых в годы независимости, в основе многих достижений музеев исследования в нашей стране. В частности, освещен анализ ряда правительственных решений по концепции представления мировой общественности нашего материального и культурного наследия, сохраненного в музеях, посредством выставок и концепции дальнейшего развития туристической сферы. Кроме того, приводятся мнения и комментарии музеев нашей республики о препятствиях в развитии музеев учреждений и организаций и их решениях.

Ключевые слова: Журнал, экспозиция, архитектура, реставрация, эксплуатация, музей, музеев, коллекция, экспонат, инвестиция, концепция, комплекс.

BUKHARA EXPERIENCE IN ORGANIZING MODERN MUSEUMS

Abstract. In this article, the importance of the efforts made in the years of independence behind many achievements in museology research in our country is widely covered. In particular, the analysis of a number of government decisions on the concept of presenting our material and cultural heritage preserved in museums to the world public through exhibitions and the concept of further development of the tourism sector is highlighted. In addition, the opinions and comments of the museologists of our republic about the obstacles in the development of the museums of institutions and organizations and their solutions are mentioned.

Key words: Journal, exposition, architecture, restoration, exploitation, museum, museology, collection, exhibit, investment, concept, complex.

Kirish. Buxoro o'zining qadimiy yodgorliklari, me'moriy inshootlari, qadimiy va o'rta asr an'analarini ko'proq saqlab qolganligi bilan O'zbekistonning boshqa viloyat va hududlaridan ajralib turadi. Buxoro shahrining paydo bo'lgandan buyon joylashgan yeri o'zgarmaganligi, qadimdan muqaddas va e'tiborli joylarga aholining hurmat bilan qarashi, e'zozlashi, ayniqsa, kitoblar, kutubxonalar faoliyati, ularni asrash, kelajak avlodga yetkazib berish kabi ijobiy xususiyatlar Buxoroda muzey ishi majoziy ma'noda qadimgi davrlardan buyon mavjud bo'lganligini isboti bo'lib hisoblanadi. muzey tashkil qilinmagan bo'lsa-da, madrasa va masjidlar, muqaddas qadamjolar ushbu vazifani bajargan, degan fikrni bemalol aytish mumkin. Yurtimizning

24 uzoq uch ming yillik tarixi shundan dalolat beradiki, har doim ham o'zbek yurti o'zining betakror iqtisodiy salohiyati bilan tabiiy ravishda ko'plarni o'ziga jalb qilib kelgan. Buxoroda muzeyni tashkil qilish borasida "O'rta Osiyo qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni qo'riqlash komiteti" Turkomstaris oldiga 1922-yil 16-fevralda Eski Buxoroda muzey tashkil etish va uning zoologiya, biologiya, minerologiya, etnografiya, arxeologiya, musulmon paleografiyasi, numizmatika va sanoat bo'limlaridan iborat bo'lishi bilan bog'liq vazifani topshirgan. "Tarixiy asori-atika sho'basi" ikki yil davomida faoliyat olib borib, Buxoro tarixiga oid ko'plab eksponatlarni to'plagan. Uning 1920-1922-yillarda olib borgan faoliyati natijasida Buxoroda ilk bora 1922-yil 8-noyabrda muzeyning tantanali ochilishi bo'lib o'tgan. Keyingi bir yarim asr mobaynida xalqimiz o'zining behisob iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma'rifiy boyliklaridan judo bo'lgan edi[1].

Biroq mazkur tazyiqlarga, yo'qotishlarga qaramasdan, o'zbek xalqi asl o'zligini saqlab qola bilganligiga ham tarix guvohlik beradi[2]. Istiqlool sharofati bilan o'zbek xalqining asrlar davomida butun sivilizatsiya rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasi muzey eksponatlari namoishida o'zining aksini topdi[3]. Darhaqiqat, zamon taqozosi bilan muzey va muzeyshunoslik sohasi rivojlanish taraqqiyotining yangi pag'onasiga ko'tarilganligini davrning o'zi isbotlab turibdi. Demak, muzeyshunoslik-jamiyatning ta'sir doirasidagi ma'rifat, ta'lim, tarbiya hamda madaniyatning umumlashgan rivojlanish bosqichini o'tovchi sohasidir.

Muzeylarni davr talabidan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish, ularning qiyofasini, ekspozitsiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish, fondlarini boyitish, ashyolarini ilmiy o'rganish, asrab-avaylash, Zamonaviy muzey ishini takomillashtirishning eng asosiy omillaridan biri bu-kadrlar tayyorlash, muzey xodimlarining zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi hamda maxsus, dastur yaratilishi yoki sotib olinishidan iboratdir[4]. Muzeylar nufuzini oshirish, ularni zamonaviy talablar darajasida jihozlash, tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun yangi usullarni tashkil etish, ilgari namoyish etish imkoni bo'lmagan muzey fondlaridagi eksponatlarni namoyish etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur bo'lib kelmoqda [5]. Yuqori texnologiyalarni, ekspozitsiyalarni namoyish etishdan tashqari, fond faoliyatiga ham joriy etish masalalari ishlab chiqilmoqda. Muzey ijtimoiy vazifasiga ko'ra ilmiy tadqiqot-ma'rifat (muzeylarning ko'pchiligi asosan shu vazifani o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, ularni ommaviy muzeylar deb ham yuritishadi); tadqiqot (ilmiy-tadqiqot institutlari qoshida o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'taydi) va o'quv muzeylariga, yo'nalishi va kolleksiyalariga qarab tarmoq, o'lkashunoslik (kompleks) va memorial muzeylarga bo'linadi. Tarmoq muzey ishlab chiqarish, fan, san'atning biror tarmog'iga tegishli bo'ladi (masalan, tarix muzeylari, zoologiya muzeylari). O'lkashunoslik muzeylari muayyan ma'muriy hududning tarixi, tabiati, xo'jaligi, san'ati, etnografiyasi va boshqa sohalarini kompleks aks ettiradi[6].

2017-yil 31-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha muhim qarori qabul qilinganligi, ayniqsa, muzey xodimlari uchun Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda "2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 975-sonli qarori katta ahamiyatga ega bo'lgan ta'kidlab o'tish joizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarorini ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan:

1. 2018-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat muzeylari, ularning filial va bo'limlari ro'yxati shakllantirildi.

2. 2017-2027-yillarda davlat muzeylari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari dasturini bajarilishini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi [7].

Davlat muzeylarining ishlab chiqiladigan yangi konsepsiyalari, muzey ashyolarini ishonchli saqlash, tashrif buyuruvchilar, xususan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, arxitektura-rejalashtirish, interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratgan holda har bir muzey binosining eskiz loyihasini muzeyning yo'nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda tasdiqlandi [8].

Bunday muzeylar faoliyatini takomillashtirish ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga olib kelishini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagi nutqi orqali: "Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri, bu – turizmdir[9]. O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanib, yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati Yunesko ro'yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "kichik haj" dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim", ta'kidlab o'tgan edi[10].

Respublikamizda muzey va muzeyshunoslik sohasining rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bu qaror 2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirishga, muzeylarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, muzeylar faoliyatini keng ommaga yoyishga zamin yaratdi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash uchun quyidagi bir qator vazifalar belgilab berilganligini ko'rish mumkin. Jumladan,

- Yangi quriladigan, rekonstruksiya yoki mukammal ta'mirlanadigan davlat muzeylari binolarini yangi konsepsiyalarini ishlab chiqish, tashrif buyuruvchilar, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, muzeyning yo'nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratish.

Shu bilan bir qatorda ushbu qaror Buxoro muzeylari faoliyatiga ham samarali ta'sirini ko'rsatdi. Buxoroda mavjud muzeylarning faoliyati takomillashtirildi hamda «Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi» filiali sifatida Mutal Burxonov uy-muzeyini tashkil etish rejalashtirildi, Sadriddin Ayniy hujra-muzeyi va Abdurauf Fitrat hujra-muzeyi Buxoro adabiyoti tarixi muzeyiga, Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi esa Boy savdogar xonadoni uy muzeyiga aylantirildi[11].

Muhokama va natijalar. Hukumatimiz rahbari 2018-yil 16-fevraldagi Buxoroga qilgan tashrifida viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishib chiqib, Buxoro o'zining betakror tarixiy obidalar, osori-atiqalari, asrlar osha davom etib kelayotgan milliy hunarmandchilik an'analari bilan yurtimiz turistik jozibadorligini oshirishda ulkan salohiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tdi. 2018-yilda viloyatda turizmni yanada rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq 61 loyihani hayotga tatbiq etish ko'zda tutilgan edi. Jumladan, 32 mehmonxona, 12 motel, 10 istirohat bog'i barpo etilib, "Buxoro Palas", "Varaxsha" va "Zarafshon" mehmonxonalari rekonstruksiya qilindi. Bundan tashqari, turizm bo'yicha xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalari xarid qilish, madaniy meros obyektlarini tadbirkorlarga ijaraga berish, havo sharida sayohatni tashkil qilish, G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent va Jondor tumanlarida qishloq turizmini yo'lga qo'yish rejalashtirib o'tilgan edi. Shavkat Mirziyoyev eski shahar qismining turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari bilan tanishar ekan, ushbu hudud tom ma'noda Buxoroning yuragi bo'lishi kerakligini ta'kidladi va o'zining kerakli maslahatlarini berib o'tgan edilar[12].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovasion rivojlantirish to'g'risida"gi, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslar, maktab yoshidagi bolalar, keksa tashrif buyuruvchilar va ularga hamrohlik qiladigan shaxslarning muzeylarga tashrif buyurishlari uchun inklyuziv shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi muzeylarining inklyuzivligi dasturini tasdiqlash to'g'risida" hamda "2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari qabul qilindi. Qaror ijrosini ta'minlash borasida qilingan ishlar natijasi sifatida muzeylar va ularga tutash hududlar infratuzilmasi takomillashtirildi, inklyuziv xizmat ko'rsatish amaliyoti joriy qilindi, inklyuzivlikni hisobga olgan holda muzey xodimlarini tayyorlash tizimi takomillashtirildi, inklyuzivlik hisobga olingan holda muzeylarning texnik aktivlari yangilandi hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun muzeylarning ma'muriy tuzilmasini

- 26 takomillashtirish, kolleksiyalarni boshqarish, eksponatlarni saqlash va konservasiya qilish tizimi takomillashtirildi. Qolaversa, ushbu qarorlar muzeylar huzurida akademik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim asos bo'ldi[13].

Ta'kidlab o'tish kerakki, qabul qilingan qonun, qaror va huquqiy hujjatlar jamiyat hayotida, xalqni fan va madaniyat bilan yaqindan tanishuvida, ilm-fan, madaniyat rivojida, shuningdek, maktab faoliyatida muzeylarning o'rnini tabora ortishiga xizmat qildi. Buxorodagi mavjud muzeylar faoliyatida samaradorlikka erishish va innovasiyalarni joriy qilish, marketing xizmatini yaxshi yo'lga qo'yish, ijtimoiy tarmoqlarda muzey haqida, uning eksponatlari haqida doimiy ma'lumotlar berib turish juda muhim hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 27-may sanasidagi PQ-261-sonli "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'tiborga molik. Ushbu qaror mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovasion texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek, o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy, yangi ekspozitsiyalarni yaratish, boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ'ib qilishga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bular albatta o'z samarasini bera boshladi. Muzeyshunoslikka berilgan yuksak e'tiborning samarasi o'laroq, mazkur sohada quyidagi misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi: muzeyshunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari yaratildi. Muzey ishini samarali yo'lga qo'yish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamg'arma tashkil etildi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish bo'yicha qator ko'rgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi. Biz maqolamizda sanab o'tilgan soha rivojidadagi muvofaqqiyatlar O'zbekistonda muzeyshunoslik sohasini taraqqiy etishga mustahkam zamin yaratgan omillardir.

Tashkil etilgan va etilayotgan ko'plab muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy merosimizni naqadar chuqur ildizga ega ekanligini singdirib kelmoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan qonun, farmon, qarorlar asosida mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida muzeylar ishi va uni tashkil etishning chora tadbirlari belgilab berildi. Hozirgi kunda ayni ana shu ishlarning uzviy davomi sifatida "Boqiy Buxoro" tarixiy – etnografik parkining qurilishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Buxoro shahrining jami 32,6 gektar maydonida "Boqiy Buxoro" tarixiy-etnografik parki bunyod etilishi ishlari boshlab yuborilgan. Bizning maqsadimiz bugungi kunda xorijiy sayyohning qolish davrini 5-7 kunga cho'zish yo'llarini o'ylayapmiz deb ta'kidlamoqda Buxoro shahar hokimi Jamol Shuxratovich Nosirov[14]. Bu uchun infrastruktura juda ham kerak. Sayyohlarga zamonaviy mehmonxona, ovqatlanish shoxobchalari va boshqa zaruriy muassasalar juda ham kerak. Qurilishi rejalashtirilgan turistik markaz buxoroliklar umid qilgan natijani albatta beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy arxivi, R-2628-fond, 1-ro'yxat, 107-yig'ma jild, 3-varaq.
2. M.B. Bekmurodova, M.X. Rashidova Muzeyshunoslik. Toshkent, 2005-yil
3. J. Ismoilova Zamonaviy muzeyshunoslik asoslari. – Toshkent, 2016. – B.4.
4. Альмеев Р. Музей жамғармаларини оптимallashtirish, saqlash va k'rgazmalashtirish // Мозийдан садо. 2 (38)-Тoшкент: 2008. Б-2-3.
5. https://lex.uz/pages/getpdfview.aspx?lact_id=3451889. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 975-qarori 2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida 11-dekabr 2017 y

6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 265-sonli qarori tahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2019y., 09/19/265/2858-son)

7.Sh.M.Mirziyoyevning Buxoroga tashrifidagi nutqlaridan. //www.google.com

8. Muzey va turizm rivojining yangi bosqichlari //www.muzey.uz 5.

9.Bobir Boltayev, [Новый этап развития музеев и музейного дела в Узбекистане, ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ \(buxdu.uz\) 5 \(5\)](#)

10.Мардонов Р., Болтаев Б. Ўзбекистон археологиясининг ривожланиши //Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 68-71.

11.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 августдаги ПҚ-3920-сон “Ўзбекистон Республикасида маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.*Қаранг:* <http://lex.uz/docs/3882752>.

12.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 ноябрдаги 945-сон “2020-2021 йилларда Ўзбекистон Республикаси музейларининг инклюзивлиги дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. *Қаранг:* <https://lex.uz/docs/4603332>.

13.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 майдаги ПҚ-261-сон “Музейларда хизматлар соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.*Қаранг:*<https://lex.uz/docs/6040013>.

14. “Boqiy Buxoro” tarixiy-etnografik parki: “snos”lar, kompensatsiya va daraxtlar taqdiri — Daryo Yangiliklari